

GTAR 16.41.25

Ilmiy maqola

M. Abdurahmanova*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston
(E-mail: mabduraxmanova20@gmail.com)***O'zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarning badiiy-kognitiv xususiyatlari**

Annotatsiya. Lingvokognitiv yondashuv nutq mexanizmi, olam manzarasi, borliq haqidagi axborotning lisoniy ongda aks etish jarayonlari, so'z ma'nosini o'zlashtirish va tushunchani til xotirasida saqlash, narsa-buyum, hodisa belgilarining idrok etilishi, leksemaning semantik taraqqiyoti masalalarini tahlil qilish, lug'aviy ma'noni anglashda shakl va mazmun mutanosibligini yoritish amaliy ahamiyat kasb etadi. O'zbek va turk tillaridagi leksik omonimlar semantik, struktur-grammatik shaklga ega bo'lishi bilan bir qatorda, kognitiv struktura bilan aloqador mazmunga ham ega bo'ladi. Shu jihatdan, o'zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarni lingvokognitiv jihatdan tahlil etish mazkur tillarning tafakkurni shakllantirish, rivojlantirish, idrok, tasavvur va mental leksikon bilan bog'liq xususiyatlarini yoritishda muhimdir. Maqolada leksik omonimlarning tafakkurni rivojlantirish omili sifatida tavsiflashda, tuyuq, askiya janrlari, iyhom, tajnis badiiy san'atlarini kognitiv-semantik jihatdan tahlili berilgan.

Kalit so'zlar: omonimiya, leksik omonimlar, tillararo omonimla, tuyuq, tajnis

DOI: <https://doi.org/10.71078/80596a98>

Qabul qilindi: 30.11.2025; Tasdiqlangan: 22.12.2025; Onlayn mavjud: 25.12.2025

Kirish

Omonimlik turkiy tillarning tabiatiga xos hodisalardan biri sifatida qayd etilgan. E.V. Sevortyan omonimlarni fe'l – ot tipli ilk o'zaklar deb nomlagan (Севортян, 1962: 365). Ba'zi olimlar omonimlarni turkumdan turkumga ko'chish hodisasi, konversiya sifatida baholashgan (Арнольд, 1954: 296). Bir qator tillarda turkiy tillarga mansub omonimlarning rus tilida qo'llangan metodlar asosida talqin qilingani, turk tilida esa yevropa metodologiyasi asosida yondashilganini kuzatish mumkin. V.D. Arakin turk tilidagi omonimiya hodisasining xususiyatlarini tahlil qilar ekan, turk tili negizida yuzaga kelgan omonimlar xususida to'xtalgan. O'rxun-Enasoy yodgorliklaridagi omonimlarni hozirgi turk adabiy tiliga qiyoslagan: *kurt* I “bo'ri”, *kurt* II “chuvalchang”; *jas* I “yosh, yil”, *jas* II “ko'z yoshi”; *at* I “ot” (hayvon), *at* II “ism”; *ot* III “olov”, *ot* IV “o'simlik”; *dolu* I “do'l”, *dolu* I to'ldirmoq”; *boğmak* I “bo'g'im”, *boğmak* II “bo'g'moq”. Omonimlarning ot–ot, ot–sifat, ot–fe'l, ot–olmosh, ot–son turkumlari o'rtasida kuzatilishini qayd etgan. Bir so'zdan ma'no taraqqiyoti natijasida shakllangan omonimlar haqida so'z yuritgan (Аракин, 1978: 48). Turk tilida omonim atamasida chalkashliklar mavjud: *Sesteşler*, *Eşsesliler*, *Eşadlılar*, *Addaşlar*, *Eş yazımlılık*, *Eş gösterenlik*, *Eş biçimlilik* tushunchalari bilan yuritiladi. Turk tilshunosligida bu masalada hanuz atamalar chalkashligi davom etmoqda (Tamtamış, Kübra, 2021: 619). Hadra Kubra, Erkinay Tamtamışlar omonimiya termini bilan aloqador tushunchalarning mohiyatini yoritgan, *Eş adlı*, *Eş sesli*, *Eş yazımlı* terminlarining munosabatini tavsiflagan: “Bazı eş adlılar eş seslidir. Bazı eş adlılar eş yazımlıdır. Bütün eş yazımlılar eş adlıdır ve Bütün eş sesliler eş adlıdır biçiminde uyarlanabilir”.

Eşadlılık (omonimlik) tovush ifodasi bir xil, ma'nolari boshqa so'zlardir. *Eşyazımlılık* (omograflar) yozilishi bir xil, boshqa-boshqa tushunchalarni anglatish uchun ishlatiladigan

tushunchadir; *eşadlı* (omonim) tushunchalari har xil, yozilishi bir xil bo'lgan so'zlar bo'lib, eşsesli "eş sesli", sesteş "sasdash" terminlari bilan ham yuritiladi; *eşadlılık* (omonimlik) hodisa nomi sifatida *sesteşlik*, *eşseslilik* terminlari bilan parallel ravishda qo'llanadi (Püsküllüoğlu, 2002: 217).

Turk olimi Ekram Sakar shakldoshlik masalasiga to'xtar ekan, Ferdinand de Sossyurning "til belgisi ifodalovchi (akustik obraz) va ifodalanmish (tushuncha)dan tashkil topadi" degan g'oyasiga suyanadi. Yozma nutqda so'z birliklarida mujassamlashgan belgi elementlari – ifodalovchi va ifodalanmish har doim teng kelavermaydi, degan fikrni aytadi. Ikki yoki undan ortiq belgining ifodalovchi va ifodalanmishi bir-biriga o'xshash bo'lishi mumkin. Masalan, turk tilida *Dolu* (to'la) va *Dolu* (do'l) ifodalovchisi ayni, ifodalanmish ayridir. Olim omonim, omograf, omofonni farqlaydi: "homonym – eş adlı – yazımı ve söylenişi aynı kelimeler; homograph – eş yazımlı – yazımı aynı kelimeler; homophone – eş sesli – söylenişi aynı kelimeler" (Sakar, 2023: 23). Ayrim olimlar omonimlarga ta'rif berishda etimologik shakllanishni ham e'tiborga oladilar. Jumadan, Enfel Doğaning qayd etishicha, imlo va talaffuzi bir xil, ammo etimologiyasi turlicha bo'lgan leksik birliklarga omonimlar deyiladi. Berke Vardarning yozishicha: Omonimlar – bir xil shaklga ega bo'lgan, ammo ma'no jihatdan bog'liq bo'lmagan so'zlar – leksik shakllardir.

Tadqiqot metodologiyasi

Omonimlarning turli so'z turkumiga tegishli bo'lishini e'tirof etgan tilshunoslar ularni ikki turga ajratishgan: leksik omonimlar va grammatik omonimlar (Homidov, 2022: 227). Ba'zi turk tiliga oid adabiyotlarda omonimlarning 3 ta turi ajratiladi: leksik omonimlar, grammatik omonimlar va sintaktik omonimlar (Leksik omonimlar – so'z omonimlar (kelime shaklinde olan sesteşler): *ög* (*anne - ona*), *ög* (*akıl - aql*); *balık* (*şehir - shahar*), *balık* (*balık - baliq*); grammatik omonimlar – qo'shimcha qo'shilgach, omonimga aylangan so'zlar (eş sesli gramer şekilleri): *altıncı* (*oltinchi raqam*) – *altıncı* (*tillachi*); *bunsuz* (*busiz*) – *bunsuz* (*muammosiz*). Omonimlik iboralar orasida ham mavjud. Ular frazeologik omonimlar deyiladi: *el kaldırmak – a) qo'l ko'tarmoq; b) urmoq; göz yummak – a) ko'rib ko'rmaslikka olmoq; b) dunyodan o'tmoq*.

Omonimiya hodisasini ifodalash uchun qo'llanadigan *homonim*, *sesteş* (*sestaş*), *eş sesli*, *eş adlı*, *eş okunuşlu* teminlari "Turk tilining izohli lug'ati" da tilshunoslikka oid termin sifatida qayd etilgan.

Ta'kidlash joizki, turk olimlari ikki qardosh yoki qardosh bo'lmagan tillar bilan omonimlar (eşsesliler) qiyosida tillararo omonimiya masalasini tahlil qilganlar. Turk tilidagi tadqiqotlarda tillararo omonimiya yoki "soxta ekvivalentlar", "aldoqchi so'zlar" kabi nomlar bilan ataluvchi til birliklari tadqiq qilingan.

Mavzuni o'rganish darajasi

Omonimlarni tushunishda murakkabliklar yuzaga kelishi mumkinligi boshqa tadqiqotlarda ham aytib o'tilgan. Mazkur hodisaning bir til doirasida ham, chet tillari orasida ham sodir bo'lishi va tillar o'rtasidagi og'zaki yoki yozma muloqotda nutqni anglashda qiyinchilikka olib kelishi ham qayd etilgan. Tillar orasida tasodifan yuzaga kelishi yoki tillararo tovush o'zgarishlari tufayli paydo bo'lishi ta'kidlanib, bir xil o'zakka ega bo'lgan va bir-biriga yaqin tillarda paydo bo'lgan omonimlar ikki tilda qilingan tarjimalarda tarjimonalarni chalg'itishi mumkinligi qayd etilgan (Polat, 2020: 132).

Turkiy tillarda leksik parallellar, jumladan, parallel omonimlarning mavjudligi asoslangan. Bunday omonimlar tillarning qardoshlik belgilari sifati namoyon bo'ladi.

Turk tili doirasida Türkçe-Rusça, Türkçe-Bulgarca, Türkiye Türkçesi-Azerbaycan Türkçesi, Çuvaş Türkçesi-Türkiye Türkçesi, Türkçe-Almanca o'rtasida tarjimalar amalga oshirilgan va turli tizimdagi tillararo yuzaga kelgan sesteş kelimeler *Sahte arkadaşlar* "soxta do'stlar", *çevirmenin yalancı arkadaşları* "tarjimonning yolg'onchi do'stlari", "Tarjimonning

dushmanlari” kabi atamalar bilan yuritilmoqda. B. Yusuf “tarjimonning aldoqchi do‘stlari” atamasining, asosan, tarjima sohasiga tegishli ekanligini ta’kidlaydi (Yusuf, 2009: 647).

Turk tilida omonimlar ko‘p va omonimik qatorlar turli-tuman bo‘lsa-da, omonimiya hodisasi atroflicha, batafsil tadqiq etilmagan. Omonimlarning shakllanishi, yuzaga kelish omillariga bag‘ishlangan monografik tadqiqotlar uchratmadik.

O‘zbek tilshunosligida omonimlar turlari, shakllanishiga doir turli fikr-mulohazalar o‘rtaga tashlangan. Leksik omonimlarning amaliy jihatdan qo‘llanishi hamda o‘rganilishi dastavval Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari bilan bog‘liq. Eski o‘zbek tili lug‘atlarida ham bir qator omonim birliklar (shakldosh so‘zlar) qayd etilgan.

S. Usmonov o‘zbek tilini “boshqa tillar kabi omonim (shakldosh) so‘zlarga boy bo‘lgan bir tildir”, deb tavsiflaydi. Aristotelning “nomlar ichida omonimlar sofistlar uchun foydali, chunki ular yordami bilan sofist hiyla-nayrang ishlatadi, sinonimlar esa shoir uchun foydali” degan ta’riflarini keltirib, omonimlarning qadimiyligini ta’kidlagan. O‘zbek xalqining askiya va o‘lan-qo‘shiqlarida omonimlardan foydalanishlarini qayd etgan.

O‘zbek tilshunosligida omonimiya hodisasi lingvistik jihatdan tadqiq qilingan. Dunyo tilshunosligida omonimiya hodisasiga psixolingvistik nuqtayi nazardan yondashish, lingvokognitiv hodisa sifatida baholash kuzatiladi. Psixologik yondashuvda esa omonimlarning bir xil shakl asosida paradigma hosil qilishi muhimdir. Bir xil shaklning tub so‘z va yasama so‘z, o‘zak va leksemashakl o‘rtasida yuzaga kelishi uning shakllanishi bilan bog‘liq keyingi jarayondir.

O‘zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlarda omonimlarga psixolingvistik, kognitiv jihatdan yondashilgan o‘rinlar ham kuzatiladi.

H. Jamolxonov omonimlar kishining chuqur fikr yuritishiga yordam berishini qayd etgan (Jamolxonov, 2005: 167). Sh. Rahmatullayev o‘zbek tilshunosligida birinchilardan bo‘lib omonimiyaning turlari, shakllanish jarayoni haqida ilmiy asosda fikr bildirgan. Shu bilan bir qatorda, omonimiyaning inson miyasi, qabul qilish darajasi bilan bog‘liq hodisa ekanligiga e’tibor qaratgan. “Omonimiya ba’zan salbiy hodisa deb baholanadi. Aytishlaricha, omonimiya fikrni to‘g‘ri va tez anglashga xalaqit beradi. Shu jihatdan til uchun ortiqcha yuk deb qaraladi. Matn odatda omonimiya tufayli yuzaga keladigan qiyinchilikni bartaraf etadi” (Rahmatullayev, 2006: 37). Hozirgi kunda jahon tilshunosligi, zamonaviy tilshunoslik, kompyuter lingvistikasida faol qo‘llanayotgan kollokatsiya usuli, ya’ni so‘z ma’nolarining birikmalar orqali aniqlanishiga e’tibor qaratilgan. Masalan, *buk* deyilganda inson miyasida ikkita tushuncha jonlanadi: *buk* I “dim, yoqimsiz issiq”, *buk* II “eg”. Ammo *Turmush g‘am-tashvishi uning qaddini bukdi* gapida omonimlik bartaraf bo‘ladi. Bu o‘rinda faqat “egmoq” harakati haqida so‘z borayotganligi kollokatsiya munosabati asosida oydinlashadi.

Sh. Shoabdurahmonov omonimiyaning ijobiy hodisa sifatida baholaydi: “Birdan ortiq so‘zning bir xil talaffuz etilishi salbiy hodisa emas. Tilda bunday hodisa mavjudligining o‘ziyoq omonimiyaning salbiy hodisa emasligini ko‘rsatadi. Chunki til fikr olishuvga salbiy ta’sir etuvchi hodisaning yashashiga yo‘l qo‘ymaydi” (III o‘qilgan, 1980: 110).

Sh. Rahmatullayev omonimlarning psixolingvistik, kognitiv xususiyatlari haqida: “Nutqda ikki xil tushunilishi mumkin bo‘lgan holatlarga ba’zan ongli ravishda yo‘l qo‘yiladi, shu asosda so‘z o‘yini hosil qilinadi. Buni omonimiyadan qisman bo‘lsa-da ijobiy foydalanish deb baholash kerak” – deydi. Omonimiyadan maxsus poetik janr – tuyuq va askiyada keng foydalanilishini ta’kidlaydi.

Qaydlarga asoslanib, o‘zbek tilshunosligidagi ayrim tadqiqotlarda omonimlarning psixolingvistik xususiyatlari, lingvokognitiv imkoniyatlar bilan bog‘liqligi haqidagi qarashlar aks etganligini ko‘rishimiz mumkin.

Omonimiyaning ilmiy asosda o‘rganish XV asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Alisher Navoiy omonimiya nazariyasini yaratuvchi ijodkor sifatida ham e’tirofga loyiq. Omonimlik

hodisasi fikrni ta'sirchan ifoda etishda, tinglovchining e'tiborini jalb qilishda ahamiyatlidir. O'z navbatida, omonim so'zlarning tushunilishi tinglovchidan bilim, mahorat, me'yoriy darajadagi tafakkur hamda fahmni talab etadi. Neyrolingvistik tahlillarda so'zning o'z va ko'chma ma'nosini o'zlashtirish miya faoliyati bilan bog'liqligi alohida ta'kidlangan. A.R. Luriya so'zning ko'chma ma'nosi, omonim so'zlar ma'nosini o'zlashtirishda nutq mexanizmining buzilishi, nutqiy faoliyat ko'rinishlarining me'yoriy darajada emasligi bilan bog'liq to'siqlar mavjud bo'lishi haqida so'z yuritadi. Aqliy rivojlanishida me'yoriylik buzilgan bemorlarning omonim shakllarni farqlamasliklarini ta'kidlaydi. Omonimlar ma'nosini tushunish inson tafakkuri, idroki bilan bog'liqligini qayd etadi (Лурья, 2009: 152).

Turkiy tillar, xususan, o'zbek va turk tillarida leksik omonimlar eng ko'p uchraydigan muloqot vositalari sanaladi.

Mumtoz adabiyotdagi so'z o'yinlari, tajnis san'ati, iyhom san'ati fikr rivojini ta'minlaydi. Tajnis (Cinas), shakli bir xil, ammo ma'nosi har xil so'zlardan foydalanish turkiy xalqlarning Alisher Navoiy aytgan "tez fahm, baland idroklik" xususiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Turkiy tillarda omonim so'zlarning ko'pligi badiiy adabiyotdagi tajnis va iyhom san'atlari uchun asos bo'lgan. Mumtoz adabiyotda tuyuq janridan keng foydalanilgan. Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, So'fi Olloyor, Habibiy va boshqalar ijodida tuyuq janridagi she'rlar ko'p uchraydi.

Navoiy tuyuq janri, tajnis san'ati xususiyatlarini mahorat bilan tasvirlash bilan bir qatorda, tuyuqning betakror namunalarini keltirgan. Uning tuyuq yaratishdagi mahorati olimlar tomonidan ham e'tirof etilgan: "Ayniqsa, she'riyatda eng qiyin san'at tajnis va iyhom bo'lib, shoir bir so'zni ikki ma'noda qo'llaydi va ikkinchi ma'nosi – yashirin qirrasi o'ta ta'sirchan yoki muhim bo'ladi. Bu hodisa fors adabiyotiga ham yot emas, albatta. Ammo o'zbek tilidagidek bir so'zni uch-to'rt ma'no ifodasiga yaraydigan tom tajnislik holati forsiyda deyarli uchramaydi. Navoiy bunga *ot*, *it*, *o't* kabi so'z tajnislari asosida yaratilgan tuyuqlarni misol keltirgan (Ibragimova, 2021: 180).

Natijalar va munozaralar

Omonimiya hodisasi badiiy san'at darajasiga ko'tarilgan. Tuyuq, askiya janri shakldoshlik hodisasiga asoslanadi. Tajnis, iyhom san'atlari shakldoshlik asosida yuzaga chiqadi. Badiiy matnda omonimlar asosida yashirin va ishora qilingan mazmun ifodalash takomillashgan. Leksik omonimlar ma'nolariga asoslangan tuyuq janri kognitiv jarayonlarni ifoda etuvchi badiiy manba hisoblanadi.

Alisher Navoiy omonimlar asosida tuyuqning badiiy jihatdan mukammal ko'rinishlarini yaratgan. Bu tuyuqlar adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Tuyuqlardagi omonimlarning ma'nolari, badiiy maqsadni aks ettirishdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Alisher Navoiy tuyuqlari, umuman, tuyuq janri lingvokognitiv aspektda tahlil etilmagan. Navoiy tuyuqlarini lingvokognitiv aspektda tahlil etish o'zbek adabiyotida omonimlar asosidagi tafakkur mashqini o'z ichiga olgan xos janrning kognitiv qiymatini asoslashga xizmat qiladi.

Rus tilshunosligida omonimlarning psixolingvistik tahliliga e'tibor qaratilgan (Рябцева, 1974: 145). Ilmiy adabiyotlarda omonimlarning kognitiv tahlil usullari keltirilgan. I.F. Vardul omonimlarni farqlashning uch xil usulini keltiradi: 1. Distributiv usul. Tahlil qilinayotgan birlikning atrofidagi so'zlarga e'tibor qaratiladi. Birliklar o'ziga mos ma'no doirasini hosil qiladi, turli birliklar semantik jihatdan har xil bo'lgan ma'no munosabatini yuzaga keltiradi. 2. Transferensiyon usul. Bunda nisbatan yuqori darajadagi birliklarga e'tibor qaratiladi. Masalan, omonim gaplarni farqlashda intonatsiyadan foydalanish e'tiborga olinadi. 3. Transformatsion usul. Tahlil qilinayotgan birliklarni bir xil tartibda qayta qurish. Mos birliklar bir-biriga muvofiq natijalarga omil bo'ladi, har xil birliklar natijalarning turlicha bo'lishini ta'minlaydi (Южаникова, 2015: 55). Bir xil shaklda ikki ma'noning ifodalanishida tushunish jarayoni

bosqichlari qayd etilgan. M. Yujannikova tadqiqotida T.I. Shatrovaning til o'yinlarini tushunish mexanizmini tavsiflash uchun qo'llagan dekodlash bosqichlarini keltirgan va uni bir qator modifikatsiyalar bilan ikki ma'noli ifodalar uchun qo'llash mumkinligini qayd etgan. Ushbu bosqichlarga tayanib va ayrim o'rinlarda ijodiy yondashgan holda Alisher Navoiyning quyidagi tuyug'i kognitiv asoslarini tahlil qilamiz:

*La'lidin jonimg'a o'tlar yoqilur,
Qoshi qaddimni jafodin yo qilur.
Men vafosi va'dasidin shodmen,
Ul vafo bilmonki, qilmas yo qilur.*

1. *Kognitiv bosqich*. O'quvchi matnni tushunishda o'z kognitiv bilimlaridan foydalanadi. Hozirgi zamon o'quvchisining qabul qilishiga ko'ra tuyuqdagi so'zlar uchga ajratiladi: *tushunarli, tushunarsiz, tushunarli tushunarsiz* so'zlar.

Tushunarli so'zlar	Tushunarsiz so'zlar	Tushunarli so'zlar	tushunarsiz
<i>Jon, o't, qosh, qad, jafo, men, vafo, va'da, shod, bilmon, qilmas, qilur</i>	<i>ul, la'l</i>	<i>yo qilur, ul</i>	

Tushunarli so'zlar hozirgi o'zbek tilida, badiiy manbalarda faol qo'llanadigan leksik birliklar bo'lib, o'quvchi ularni oson anglaydi. *Tushunarsiz* so'zlar sifatida keltirilgan *ul* – olmoshning tarixiy shakli. *Ul* so'zini o'quvchi to'g'ri qabul qilganidan keyin ham u *tushunarli tushunarsiz* so'zga aylanadi. Chunki *ul* shakli omonimlik xususiyatiga ega: uchinchi shaxs kishilik olmoshi va ko'rsatish olmoshi. Bu tuyuqda *ul* so'zining *qilmoq* fe'liga tobelanib bog'lanishi va *kim* so'rog'iga javob bo'lishi (*qaysi* so'rog'iga javob bo'lganida ko'rsatish olmoshi bo'ladi) uchinchi shaxs kishilik olmoshining tarixiy shakli ekanligini ko'rsatadi. *Ul* so'zidagi omonimik holat uni *tushunarli tushunarsiz* so'zlarga aylantiradi.

Tuyuqdagi *la'l* so'zi hozirda ishlatilmagani uchun o'quvchiga bir o'qishda *tushunarli* bo'lmaydi. Uning ma'nosini bilish uchun o'quvchi mumtoz adabiyot namunalari ko'p o'qigan va shu so'zning ma'nosini anglagan, *la'l* so'zining qizil rangli qimmatbaho tosh ekanligini lug'atlardan ko'rgan bo'lishi kerak. *La'l* o'z ma'nosida qo'llanmayotgani, istiora sifatida *lab* ma'nosida kelganini tushunish uchun esa *la'l* va *lab* o'rtasidagi rang aloqadorligini anglashi kerak.

Ul, la'l so'zlarining ma'nosini anglash uchun o'quvchi kognitiv ongdagi ma'lumotdan foydalanadi.

Tushunarli tushunarsiz so'zlarga *yo qilur* qo'shma so'zi va *yo qilur* birikmasi ham mansubdir. Bu ikki so'zning birikkan holda kelishi kitobxonga tanish. Ammo so'z shakllarning ma'nosini tushunish jarayonida o'quvchi ongida ikkita to'siq paydo bo'ladi: 1) bu ikkita so'zning qo'shma yoki so'z birikmasi ekanligini anglash; 2) bir xil shakllarning (omonimlarning) qanday ma'noda kelganini aniqlash. Bu so'zlar qo'shib yoki ajratib yozilishi jihatidan joriy alifboda farqlanadi. Arab yozuvida bu shakllar bir xil yoziladi: *yo qilur*. Alisher Navoiy tuyuqlari shu shaklga asoslangan.

Birinchi misradagi *yoqilur* "olov yoqmoq" ma'nosidagi so'z. Bu ma'noni anglashda ikkita omil yordam beradi: 1) so'zning qo'shib yozilishi. So'z qo'shib yozilganda bu shakl orqali ifodalanadigan keyingi ma'nolardan farqlash omili yuzaga keladi. Chunki keyingi omonim shakllar *-il* majhullik shaklini qabul qilmaydi; 2) *yoqilmoq* so'ziga tobe bog'langan *o'tlar* so'zi ma'noni to'g'ri anglash omili hisoblanadi. Omonimlik birikma tarkibida o'z mohiyatini yo'qotadi. Ya'ni birikma hosil qilingach, omonimlik yo'qoladi. Dunyo tilshunosligida so'z

ma'nosini aniqlash, omonimlarni farqlash maqsadida kollokatsiya usuli faol qo'llanmoqda. M.V. Kopotev, A. Mustayokilar hozirgi tilshunoslikda korpus asosidagi yondashuvning ahamiyatini bir qator misollar orqali ko'rsatib berishar ekan, shunday yondashuvlarning bir usuli sifatida kollokatsiyalar (ya'ni leksemalar birikmasi) tadqiqi hozirda korpus tadqiqotlarining eng ommabop mavzularidan biri bo'lib qolayotganligini ta'kidlashgan (Kopotev, 2008: 10).

Ikkinchi misradagi *yo qilur* "yoy qilmoq" ma'nosidagi qo'shma fe'l. Uni anglash uchun, avvalo, arab yozuvi, undagi harflar haqida bilim talab qilinadi. Arab alifbosidagi yo(y) ʻegikʼ tushunchasini ifodalash uchun qo'llangan va harf san'ati uchun asos bo'lgan. Bu o'rinda ʻ (yoy) har doim ʻ (alif)ga zid qo'yiladi: ʻ (alif) tik qomatni, ʻ (yoy) egik qomatni ifoda etadi. O'quvchi qosh va ʻ (yoy) o'rtasidagi aloqadorlikni ham sezishi kerak va Alisher Navoiyning botinan qoshni ʻ (yoy) ga qiyoslaganini anglashi kerak bo'ladi.

To'rtinchi misrada *qilur* mustaqil fe'l sifatida yo bog'lovchisi bilan birikib kelgan: *Ul vafo bilmonki, qilmas yo qilur*. Bu misrada transformatsiya so'z o'yiniga asos bo'lgan. *Yo qiladi, yo qilmaydi* tipidagi qoliplarda har doim bo'lishli shakl avval, bo'lishsiz shakl keyin keladi. So'z tartibining o'zgarishi qofiya talabi bilan yuzaga kelib, tajnisni yuzaga keltirgan.

2. *Lingvistik bosqich*da mazmunni qabul qiluvchiga lisoniy birlik orqali aytilmagan element namoyon qilinadi. Tuyuqdagi *bilmonki* so'zi *yo qilmadi yo qilur* so'zlari orqali reallashgan ma'noni ifodalashda noaniqlik semasini namoyon qiladi. O'quvchi o'ngida bo'lishli va bo'lishsiz harakat vaziyati jonlanadi. Bu yerdagi noaniqlik muallif aytmoqchi bo'lgan aniqlikni ifodalashga xizmat qiladi. Muallif tajohilu orifona san'ati orqali yorning vafo qilmasligini ta'sirchan ifodalagan.

3. *Mazmunlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash bosqichi*. Tuyuqda aks etgan, o'quvchi ongida idrok qilinadigan ikki xil – zohiriy va botiniy mazmun o'rtasidagi munosabatni izohlaymiz.

Zohiriy mazmun	Kognitiv aloqadorlik	Botiniy mazmun
<i>La'ldan jong'a o't yoqilur.</i>	qizillik	Labidan jong'a o't yoqilur.
Qoshi qadni yo (yoy) qiladi.	egiklik	Qoshi qadni egadi.
Vafo qilish-qilmaslikdan qat'i nazar vafo haqidagi va'dadan shodlik.	Yorning haqidagi xulosa vafosizligi an'anaviy	Vafo qilmasa-da, vafo haqidagi va'dadan shodlik.

Tuyuqda ifodalangan zohiriy va botiniy mazmun asosida yo qilur omonim shakli turadi. Mazkur birlikdagi omonimlik yo va qilur shakllarining o'zaro muvofiqligi negizida yuzaga kelgan:

Misralar	Yo	Qilur
1-misrada	so'zning nomustaqil tarkibiy qismi	so'zning nomustaqil tarkibiy qismi
2-misrada	harf nomi	yordamchi fe'l
4-misrada	bog'lovchi	mustaqil fe'l

Yo va *qilur* shakllarining mazmun qiymatini to'g'ri anglagan o'quvchi tuyuq mazmunini oson tushunadi.

4. *Pragmatik bosqich*. Qabul qiluvchi implitsit mazmunning nisbiy versiyasini ilgari suradi, shuningdek, deshifrovkaning muvaffaqiyati va adekvatligini baholaydi. Bu jarayon ongda tez va bir lahzada bo'ladi. Shunga qaramasdan, tadqiqotchilar bu jarayonni modellash tirishga harakat qiladilar (Хайрутдинова, 2006: 161). Alisher Navoiy tuyug'ida go'zal chehrali yorning

va'daga vafosidan (vafo qilish-qilmasligidan) qat'i nazar oshiqning sadoqati aks ettirilgan.

Tuyuqda qayd etilganlardan tashqari boshqa botiniy ma'nolar ham borki, uni anglash uchun tasavvuf va diniy bilimlar haqidagi kognitiv ma'lumotlar zarur bo'ladi.

Birgina tuyuqni anglash uchun inson ongida shuncha jarayon va ma'lumotlar mujassamlangan ekan, bu janrning tafakkurni rivojlantirishdagi qay darajada ahamiyatga ega ekanligi ma'lum bo'ladi.

Tuyuq janrini tushunish aqliy kamolotni talab etadi. Qolaversa, Alisher Navoiy tuyuqlari buyuk mutafakkirning teran aql-idrok mahsullari hisoblanadi. Tuyuq yaratish ijodkordan bilim, aql-idrok, o'tkir zehn talab qilganidek, o'quvchidan ham aql-idrok, rivojlangan tafakkur darajasini taqozo qiladi.

Omonimlarga asoslangan tuyuq, askiya janrlarini keng yoyish, kognitiv jihatdan o'rganish, matn lingvistikasi, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika yo'nalishlarida tahlil qilish aql-idrok, tafakkur rivojida muhim ahamiyatga ega. Alisher Navoiy tuyuqlari bu borada yuksak darajadagi idrok mahsullari sifatida e'tiborga molikdir.

Rejai Kiziltunch *tuyug'* so'zining turkiy lug'aviy ma'nosi "*qo'shiq aytish, maqtash, berkituvchi, sirli va so'z o'yini, taklif qiluvchi so'zlar*" ekanligini qayd etgan. Ko'proq chig'atoy va ozarbayjon adabiyotida uchrashini, ayniqsa, Alisher Navoiy bu misra shaklining qoidalarini yozib, turk shoirlarini *tuyug'* yozishga undaganini ta'kidlaydi. Tuyuq XVI – XVII asrlarga turk shoirlari tomonidan qo'llanilganda edi ko'p muammolar bartaraf etilishini, boshqa mumtoz she'rlar qatori devon adabiyotida ham tuyuq o'z o'rnini egallagan bo'lishi mumkinligini qayd etgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, turk shoirlari tuyuq janrini kam qo'llaganlar. Rejai Kiziltunch tuyuq janrning lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratib, "eshitmoq" fe'lidan kelib chiqqanligini, "his qilmoq, qalbdan tushunmoq" ma'nosini ifodalashini ta'kidlaydi. Adabiy atama sifatida tuyuqning arab va fors adabiyotida emas, faqat turkiy adabiyotda qo'llanilgan nazm shakli ekanligini qayd etgan. Boshlanishi milliy turkiy bayt shakli bo'lgan to'rtlik, xalq adabiyotidagi maniy, devon adabiyotidagi ruboiyning muqobili sifatida e'tirof etadi. Ozarbayjon va chig'atoy adabiyotida tuyuqdan ko'proq foydalanilgani, dastlab Anadoludagi ba'zi shoirlar tomonidan yozilgan bo'lsa-da, XVI asrdan keyin deyarli yozilmaganligini ta'kidlaydi (Kiziltunch, 2008: 107). XIX. asrda yozilgan Usmon Sururiyning to'rtligini keltirib, tuyuq xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatgan:

*Mekreb üzre yüklediler tenbelit
Eyler âsâyışle av av tenbel it
İstirâhat çüinki tenbellikdedir
Sen beni yâ Rab hemîşe tenbel it*

Tuyuqning ma'lum belgilarini o'zida mujassam etgan bu to'rtlikning birinchi qatoridagi *tenbelit* "hayvon yuki" ma'nosini bildirishi; ikkinchi qatorda *tenbel it* "dangasa it" ma'nosini ifodalashini, so'nggi misradagi *tenbel it* "dangasa it" ma'nosini bildiruvchi so'z birikmasi bilan so'z o'yini qilganini izohlagan.

Turk tilida omonimlarga ta'rif berilib, uning adabiyotda badiiy san'atlarga asos bo'lishi haqida ma'lumot keltirilgan. "Yozilishi va o'qilishi bir xil, ma'nolari bir-biridan farqli bo'lgan omonimlar (sesteş sözcükler) ot yoki fe'l turkumiga oid bo'ladi. *Sesteş* so'zi *eş sesli* kalimasiga teng keluvchi birlikdir. Omonimlar (sesteş sözcükler) she'rlarda *cinas sanati* (tajnis san'ati)ni yuzaga keltiruvchi birliklardir. *Sesteş* va *eş sesli* ayni ma'noda qo'llanuvchi terminlardir. Bir xil yozilib, farqli ma'nolarni ifodalaganidan adabiyotda faol qo'llanadigan bir usuldir. She'rlarda omonimlar (sesteş kelimeler) asosidagi jinos (cinas) san'ati (so'z o'yini, ruscha kalambur) qo'llanadi. Tuyug she'riy shaklining asosiy qo'llanish davri chig'atoy adabiyotidir.

Tuyug' ilk bor ozarbayjon adabiyotida XIV asrda Qodi Burhoniddin va Seyyid Nasimiyda uchraydi. Onadolu mumtoz adabiyotida Ahmet Posho devonida kuzatiladi.

*Ey yanađı al ve giydiđi al
Ala gözlüm etme can almađa âl
Âl ile buseni aldım dostum
Ger peşiman oldun ise yine al*

Birinchi misrada *kırmızı, qizil*; ikkinchi va uchinchi misrada *hile, düzen, dek*; oxirgi misrada ise *almak* fe'li qo'llangan.

Mumtoz she'riyat janri bo'lgan tuyuqning tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakl, mazmun va uslub jihatidan yuksalish va pasayishlar ko'zga tashlanadi. Mumtoz she'riyat janrlari shu adabiyot yashagan davr va hududlarda rag'bat ko'rgani holda, tuyuq turk madaniy jo'g'rofiyasining ma'lum qismi va davri bilan chegaralangan. Yuqorida ham ta'kidlanganidek, ruboiy, qit'a kabi o'xshash janrlarning ko'proq ma'qul ko'rilishi, yaratilishi tuyuqning keng madaniy hududda tarqalishi va rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. Mukammal darajaga kelishi uchun yetarli fursatga ega bo'lmagan bu she'riy janrda turk mumtoz adabiyotining cho'qqisi bo'lgan davr – XVI va XVII asrlar shoirlari ijod qilganida edi, tuyuqning tartibsiz, noma'lumdek ko'ringan jihatlarini bartaraf etilgan bo'lar edi. Shu tariqa tuyuq mumtoz adabiyot yaratilgan hududlarda hamma tomonidan qabul qilingan mumtoz she'riy janr sifatida o'z o'rniga ega bo'lardi.

Onadolininig eng mashhur tuyuq ijodkorlaridan Ivazposhazoda Atoiy edi. So'ngra Amasyali Muniriy, Ederneli Ilmiy, Muhitiy Kemal Ummiy tuyuq ijodkorlari sanaladi. Turk adabiyotida XVII asrdan e'tiboran tuyuq o'rnini tamoman ruboiy egalladi.

Omonimlar eş sesli (sesteş) maqollarda, iboralarda va jinos san'atida qo'llanadi. Turkchada eng faol qo'llanganlari: *taş, at, kurt, geç, saz, yol, serin, yağ, in, dal, gül, uç, dik, iç, an, kız, yağ, kaz, dolu, çay, kara, yaş, kaç, kan, bağ, kazan, asma, al, güldür, yan, var, yazma, koru, sık, bin, kat, ay, öğüt, sal, yaz, yüz, dil*.

“Köyün içinden geçen çay, yazları kuruyordu.”

“Bir bardak çay içince tüm yorgunluğunu unuttu.”

Birinchi jumladagi “çay” so'zi “akarsu” ma'nosini, ikkinchi jumladagi “çay” “ichimlik” ma'nosini ifodalab kelmoqda.

“Bu çiçekleri size ben getirdim.”

“Yüzünde küçük bir ben vardı.”

Birinchi jumladagi “ben” I shaxs kishilik olmoshi, ikkinchi jumlada “qora nuqta” hol ma'nosidadir.

Bir so'z omonim (sesteş) bo'lishi uchun har ikki ma'no yaxlit, mustaqil bo'lishi kerak. Bir so'zning turli ma'nolari omonim hisoblanmaydi. Masalan, “yüz”: Masanın yüzü çok kirlenmiş / Stolning yuzi juda kir bo'ldi. Jumlada “yüz” leksemasi “yon, taraf” ma'nosida kelgan. “Bu yüz bana tanıdık geliyor” / Bu chehra menga tanish ko'rinayotir: “kişi” ma'nosida ishlatilgan; “Ne yüz ile geliyorsun ki bana?” / Qaysi yuz bilan menga kelyapsan? Bu jumllalarda “yüz” so'zining bir necha ma'nolari ifodalangan. Bu o'rinda “yüz” leksemasini omonim sifatida baholab bo'lmaydi. “Sabahleyin yüzünü yıkamasını yüz kere söyledim” / Erta tongda yuzini yuvishini yuz karra so'yladim jumlasidagi yüz birliklari o'zaro omoniim (sesteş) hisoblanadi. Chunki birinchisi “chehra, surat”, ikkinchisi “son” ma'nosidadir va alohida, bir-biriga aloqador bo'lmagan tushunchalarni anglatadi. O güzel bülbül kanadı/Konunca dikene kanadı Kısmetindir gezdiren yer yer seni/ Arşa çıksan akıbet yer, yer seni./Onun için onun adı yer oldu. Önce besler sonra kendi yer seni.(İbn-Kemal Paşa). Mazmuni: Qismatingdir kezdirgan yurtma-yurt seni, Arshga chiqsang, oqibat yer, yer seni. Misralarda yer yer “yurtma-yurt”, yer seni “yer yutar”, yer “yer”, yer “yemoq” so'zlari tajnisni yuzaga keltirgan.

Tajnis (Cinas) san'ati hikmatli so'zlarda, maqollarda ham kuzatiladi: *Eyleme vaktini zâyî, Deme kış yaz oku yaz / vaqting zoye aylama, dema qish-yoz, oqi yoz*. Turk tilida jinos san'atining nazariy masalalari ham yoritilgan. Yozilishi va talaffuzi bir xil, ma'nolari har xil so'zlar o'rtasidagi badiiy san'at sifatida tavsiflangan. Jinos san'atining yuzaga kelishi uchun eng kamida ikkita

to'liq yoki qisman omonim so'z ishtirok etishi lozimligi ta'kidlangan. Bu so'zlarning ism yoki fe'l bo'lishi, so'z va qo'shimchalar, so'z birikmalari o'rtasida kuzatilishi ahamiyatsiz ekanligi qayd etilgan.

Jinos san'ati o'qish va tushunishga aloqador bo'lgan go'zal tasvir usullaridan hisoblanadi. Jinos yozma badiiy adabiyotda emas, xalq og'zaki ijodida ham badiiy tasvir usuli sifatida xizmat qiladi. Omonim so'zlarning qofiya tarzida qo'llanishi jinosli qofiyani yuzaga keltiradi. Turk mumtoz she'riyatida qofiyaning bir usuli sifatida shakllandi.

O'zbek badiiy matnlarida omonimlar ishtirokida hosil qilingan tajnis san'ati so'zlovchining fikrini, maqsadini ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda she'rning mantiqiylikini, presuppozitsiya asosidagi profozitsiyani yuzaga chiqarishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Tajnis hosil qiluvchi leksik omonimlarning kognitiv-semantik xususiyatiga ko'ra quyidagi turlarini ajratish mumkin:

1) Turkiy tillarda fe'l leksemalar tajnisni yuzaga keltirgan:

*Yomg'ir ham tinmadi, uzun kun
Ivishgan novdalar sindilar.
Yomg'ir ham tinmadi uzun kun,
Barglari jon uzib tindilar* (Parfi, 2013:56).

*Yağmur da dinmedi gün boyu,
Uyuşan sürgünler kırıldı.
Yağmur da dinmedi gün boyu,
Dindi, ama yapraklar döküldü* (Koraş, 2009:336)

Tin I 1) to'xtamoq; 2) tinchimoq; 3) quyqasi, loyqasi cho'kib, musaffolanmoq;

Tin II Ot. Nafas, dam, havo. 1-va 3-misralardagi *tin* (yomg'ir ham tinmadi) so'zi bilan 4-misradagi *tin* so'zi semantik jihatdan farq qiladi: 1-3-misralardagi *tinmoq* so'zi omonimlar qatorining I shaklidagi *to'xtamoq* (yomg'ir ham to'xtamadi) semasiga to'g'ri kelsa, 4-misradagi *tin* (Barglari jon uzib tindilar) so'zi tabiat hodisasiga ishora qilmoqda: ya'ni singan novdalarning barglari uchun hayot tugaganligi ma'nosi mujassam. Barglari jon uzib *tindilar* misrasida o'zbekcha matnda *tin* barglarning hayoti so'nishi natijasida "tin" gani aks etgan bo'lsa, turkcha tarjimasida *Dindi*, ama yapraklar döküldü "tin"moq jarayoni barglarga aloqador bo'lmay qolgan.

*...Ko'chalarga qaraysan har zum,
Kechalarni oqlaysan, ona.
Gunohkorman yolg'iz men o'zim,
Yana meni oqlaysan, ona* ("Turkiston ruhi", 70)

Oqlamoq – 2-misrada ko'chma ma'noda oqlamoq nurga to'ldirmoq ma'nosida; 4-misrada biror kishining gunohsiz ekanligini tasdiqlamoq ma'nosi va biror harakat yoki holatning to'g'riligini tasdiqlamoq.

*...To'lqinlar ustida parishon
Sevinchlarim, chekilgan ohim.
Borini chekaman asabiy,
Imonimda allaqanday kuch
Dalgalardan çok perişan
Sevinçlerim, çekilen ahım.
Olana katlanırım, ofkeyle,
Imanimda tarifsiz bir güç.*

Chekmoq omonimi asosidagi tajnis san'ati: *Chekmoq* I Boshdan kechirmoq, ruhan yoki jismonan his qilmoq, azob chekmoq; *Chekmoq* II iste'mol qilmoq, sigaret chekmoq; *Chekmoq* III

sanchib, kuydirib, bosib tasvir, naqsh, bezak hozil qilmoq, bezamoq. She'rda *chekmoq* so'zining omonimik qatordagi 2-va 3-shakllari qo'llangan. 3-shaklning 1-semasi qo'llangan. Bu o'rinlarda qo'shma fe'l tarkibidagi ikkinchi fe'l bilan sodda fe'l omonimligi kuzatilgan: chekilgan ohim (Oh chekmoq); Chekaman asabiy (chekmoq).

Turkiy tillarda eng faol kuzatiladigan ot-fe'l omonimligi tajnisga asos bo'lib kelgan: *Ot* omonimligi asosida tajnis san'ati hosil qilingan: *Ot* I. fe'l; irg'it, uloqtir, o'q uzmoq, o'q bilan o'ldirmoq; *Ot* II ism, nom, shuhrat, dong, grammatika termini, predmetlik ma'nosini anglatuvchi so'zlar turkumi. *Ot* III yakka tuyoqli ish-ulov hayvoni.

<i>...Zulmat otli shoh kiymoqda toj, O'z hukmiga olganda uyqu Uxlab olar olam noiloj Bechora tong –uxlolmaydi u.</i>	<i>...Karanlık adlı şah giymekte tac, Kendi hükmüne alınca uyku Uyumakta alem bî-ilaç. Zavallı tan, hiç uyumaz o</i>
--	--

Zulmat otli shoh kiymoqda toj misrasidagi *ot* so'zini 2-omonim shaklning nom, 3-omonim shakl hayvon semalarining har ikkisida ham qo'llab ko'rish mumkin: ya'ni 2-zulmat otli (nomli) shoh kiymoqda toj; 3-zulmat otli (zulmat otiga (hayvon) ega shoh) kiymoqda toj. 2-shaklda qo'llaganda zulmat shohning o'zi bo'lsa, 3-shaklda zulmat uning otiga aylanadi va bu holatda nutqiy aniqlik yo'qolsa-da har ikki ma'noda ham tabiat tasviriga putur yetmaydi: atrofni qorong'ilik qoplayotgani tasviri. Lekin nisbatan 1-ma'no - "nom" semasi kognitiv maydonning yadrosi hisoblanadi. Bunga sabab *ot* so'zining sintagmatik bog'lanishida shaxs nomini bildiruvchi *shoh* so'zi bilan bir qatorda kelayotganidir va ongda shaxsni anglatuvchi so'z oldida *ot* so'zining kelishi nisbatan kuchliroq qabul qilinganligidir.

<i>G'unchalar pushtirang va zafar Zangori yaproqlar shahrida G'unchalar orzumdek har safar, G'unchalar qalbimning bag'rida... (“Turkiston ruhi”,37)</i>	<i>Goncalar kırmızı ve sarı Yeşil yapraklar şehrinde Goncalar arzum gibi her sefer Goncalar kalbimin bağrında</i>
---	---

1-3-misralarda –*g'uncha+lar* ko'plik shaklida kelgan ot leksema; 4-misrada –*g'uncha+la+r* ravishdosh shakli tajnisni yuzaga keltirmoqda.

*Yong'ir yog'ar, shig'alab yog'ar/ Tomchilar tomchila+r sochimga
Yağmur yağacak, yağmur yağacak/ Saçlarım damla damla.
Turk tiliga Hikmet Korash tarjiması.*

*Yağmur yağar, sicim gibi yağar/ Damlar damlar saçıma.
Muhittin Gumush tarjiması.*

*Bo'g'zimda qotgan so'zlarim,
Sochiling samoga, sochiling.
Mana tong. Tonglarning go'zali,
Tong oqardi va sochim mening.*

Soch omonimi quyidagi ma'nolarda tajnisni yuzaga keltirgan: *Soch* I. Odamning bosh terisidan o'sadigan qil tolalar qoplamasi va ularning har biri; *Soch* II biror tarzda o'stirilgan va tartibga solingan shunday tolalar majmuyi; *Soch* III chumchuqsimonlar turkumining shaqshaqlar oilasiga kiruvchi kichkina sayroqi qush; maynaning bir turi; *Soch* IV 1) sepmoq; 2) har yon har yonga tarqatib tashlamoq, parishon qilmoq; 3) ko'chma ma'noda tarqatib yubormoq; 4) tarqatmoq yoymoq; 5) taramoq, yoymoq –xilma-xil gullar xushbo'y hid

sochmoqda (taratmoqda); 6) Biror o'lchovda, me'yorda taqsimlab tarqatmoq, solmoq – xarajatni hammaga baravar sochmoq. She'rdagi 1-2- *soch* so'zlari omonimik qatorning IV shakli 2-semasida qo'llangan; 3-*soch* so'zi esa omonimik qatorning I shaklidagi semasida qo'llangan. *Tong oqardi va sochim mening* misralarida *oqardi* so'zida bir so'zning esa ikkita sema mujassam: *tong oqarmoq* – yorishmoq; *soch oqarmoq* – oq rangga kirmoq ma'nolari. She'r talabi bilan ikkinchi *oqarmoq* (*soch oqarmoq*) leksema orqali emas, konseptual tarzda ifodalangan.

She'riyatda ot va fe'l leksemalar doirasida bir harf bilan farqlanuvchi omonimik birliklar asosidagi to'liq bo'lmagan tajnislar ham uchraydi: *o'yla* - *o'ylar*

<i>Meni o'yla, sog'inib o'yla</i> <i>Yolg'iz meni o'yla intizor</i> <i>Muncha g'amgin bo'lmasa o'ylar.</i> <i>Yolg'iz meni o'yla intizor</i> ("Turkiston ruhi", 54)	<i>Beni dūşün, özleyip dūşün,</i> <i>Yalnız dūşün yolumu bekle,</i> <i>Böyle gamlı olmasa fikir</i> <i>Yalnız dūşün yolumu bekle.</i>
---	--

She'ning turkcha tarjimasida ko'p joylardagi omonimlik hosil qilgan (shakliy omonimlik) so'zlar o'zgarib ketgan va oradagi shakliy omonimlik yo'qolgan. She'rda *o'y* so'zining 1-band so'nggi 3-misrada takrorlanishi iltizom san'atini yuzaga keltirgan. *Iltizom* – bir so'zning ketma-ket kelgan bir necha misra yoki baytlarda ongli ravishda takrorlanishi; *kecha-kechar*:

Bu xafa kecha kechar
Quvgay uni oftob.
Bu kecha pardek uchar
Qo'ynida majhul sarob.
Bul xafa kecha kechar,
Kechar ko'ngildan alam ("Turkiston ruhi", 33)

Kech omonimi asosida shakllangan tajnis san'ati: *Kech* I Sutkaning kunduz qismi tugab, tun qismi boshlangan payti, kunduz bilan tun oralig'i. *kech* kirdi; *Kech* II sutkaning qorong'i tushgandan tong otguncha o'tadigan qismi: tun. *Kech* III fe'l –*kechmoq*; 1) biror narsa ustidan bosib o'tmoq, yurmoq; 2) yuz bermoq, sodir bo'lmoq; 3) o'tmoq –ko'ngildan qanday gaplar kechdi; 4) afv etmoq, kechirmoq; 5) bahridan o'tmoq; 6) yuz o'girmoq. She'rda 3-band 1-misrada "yuz bermoq, sodir bo'lmoq" ma'nosida: *Bu xafa kecha kechar*; 3-band 2-misrasida esa "bahridan o'tmoq", "hamma narsadan kechmoq ma'nosida ya'ni uyqudan kechmoq" ma'nosida qo'llangan.

<i>Alanga chaqnaydi ko'zimda,</i> <i>O'tlar meni tashladi tilib,</i> <i>Sevgi, sevgi, mening bo'g'zimda,</i> <i>Kalimaga kelmaydi tilim</i> ("Turkiston ruhi", 99)	<i>Kıvılcımlar çakar gözümdе,</i> <i>Ateş beni bıraktı dilip.</i> <i>Sevgi ise benim boğazımda,</i> <i>Söylemeye dönmiyor dilim</i>
--	--

Til omonimi: *Til* I. Og'iz bo'shlig'ida joylashgan, ta'm-maza bilish, og'izga ovqat olish va shu kabilar uchun xizmat qiluvchi muskulli a'zo; *Til* II kishilar o'rtasida, jamiyatda o'zaro fikr almashishning muhim vositasi; *Til* III so'zlash, gapirish, fikr ifodalash qobiliyati; *Til* III Fe'l – *tilmoq*. 1) pichoq va shu kabi tig'li narsa bilan uzunasiga kesmoq, qirqmoq; 2) tilim-tilim qilib kesmoq, tilimlamoq; 3) yog'och yoki taxtani uzunasiga arralamoq; 4) tirnab yoki yulib, uzun iz hosil qilmoq. She'rda *til* so'zining omonimik qatordagi II va III shakllari qo'llangan. Aslida o't so'zi bilan *tilmoq* so'zi sintagmatik aloqaga kirishmasa-da ma'no kuchaytirish maqsadida mantiq ifodalagan.

I. O't. Jigardan ajralgan suyuqlikka ega xalta shaklidagi ichki a'zo; II. O't. Olov, gulxan; III. O't. Giyoh, ko'kat, maysa, o'lan; IV. Fe'l. boshqa bir nuqtaga harakatlanib o'tmoq. She'rdagi o't omonim so'zining 2-shaklidagi olov semasi qo'llangan ya'ni yulduzlarning nur sochishi o'xshatilgan.

O'zbek mumtoz adabiyotida omonim so'zlardan janrlarni shakllantirishda va badiiy san'at hosil qilishda keng foydalanilgan. Turk tilida omonimlarning badiiy imkoniyatlari nisbatan kam ifodalangan.

Omonimlar asosida yuzaga kelgan badiiy san'atlardan biri iyyom san'atidir. Iyyom arabcha so'zdan olingan bo'lib, "shubhali" degan ma'noni bildiradi. Iyyom va tajnisning o'xshash jihati har ikkisinin omonimiya hodisasiga asoslanishidir. Farqli jihati tajnis (turk tilida jinos) san'atida omonemalar ishtirok etadi, ya'ni omonim so'zlar kamida birdan ortiq o'rinda keladi. Iyyom san'atida omonimlar faqat bir o'rinda kelib, so'zlovchi bir xil shakl asosida bir necha omonema (omonim qatori)ga ishora qiladi. Qaysi omonema nazarda tutilgani shubhali bo'ladi:

Munajjim qosh-ko'zin ko'rib aytur: ul oyning boshida fitnalar bor. Bu o'rindagi oy omonimi ikki xil omonemaga ishora qiladi: oy I oy harakatiga asoslangan vaqt o'lchovi; oy II mahbuba. Matn mazmunidan har ikkisini ham tushunish mumkin.

Pauf Parfining "Soya" she'ridagi ushbu bandeda ham "Muhabbat" ikki ma'noda qo'llangan.

*Muhabbat, sen menga vafo qilmading,
Sevgi sahrasida osiy, mosuvo.
Men seni bilardim, meni bilmading,
Balkim u soyamas, sensan, bevafo?*

Xulosa

O'zbek mumtoz adabiyotida iyyom, tajnis, ta'rix kabi badiiy san'atlarning qo'llanishi, aruz vaznida, tuyuq, askiya, fard janrlarida ijod qilinishi omonimlarning keng doirada qo'llanishini ta'minlagan. Omonimdagi noaniqlik tushunchani anglashni murakkablashtiradi, natijada tinglovchi shu shakldagi barcha leksik birlikni xotirada jonlantiradi. Bu esa tafakkur mashqining badiiy ko'rinishi sifatida e'tiborga molik. Turk tilida badiiy adabiyotda omonimlardan keng foydalanish nisbatan kam kuzatiladi. O'zbek va turk tillaridagi omonimlar tahlili leksemalardagi shakl va ma'no munosabatini ifoda etishdan tashqari til sohibining yondashuvi, lingvistik qonuniyatlar, ijtimoiy-madaniy munosabatlar ta'siridagi farqli xususiyatlarni namoyon etadi. Bu jarayonlarni tadqiq etishda lingvokognitiv yondashuv asosidagi tadqiqotlar talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Аракин, В.Д. (1978). Об омонимах в турецком языке. *Советская тюркология*, 2. – 48-61.
- Арнольд, И.В. (1954). *Лексикология современного английского языка*.
- Копотев, М.В., Мустайоки, А. (2008). Современная корпусная русистика. *Slavica Helsingiensia. Инструментарий русистики: корпусные подходы*. Хельсинки, – 10-13.
- Лурья, А.Р. (2009). *Основные проблемы нейролингвистики*.
- Машраббекова, А. (2009). Лексические параллели в тюркских языках и их возникновение. *Филология: научные исследования*, 2. – 51-61.
- Навоий, А. (1983). *Мукаммал асарлар тўплами 20 томлик. 1-том. Бадойиъ ул бидоя*. Тошкент. Фан.
- Норман, Б.Ю. (1974). Психолингвистический эксперимент с синтаксически омонимичными предложениями. *Вопросы лексики и синтаксиса*. – 145-150.
- Парфи Рауф (2013). *Туркистон руҳи. Сайланма*. Тошкент.
- Реформатский, А.А. (1967). *Введение в языкознание*. Москва.
- Рябцева, Э.К. (1973). О понимании студентами явления грамматической омонимии

при чтении научно-технической литературы (По результатам эксперимента). *Некоторые вопросы методики преподавания иностранных языков в школе и вузе.* – 75-87.

Севортян, Э.В. (1956). *Аффиксы глаголообразования в азербайджанском языке.* Москва.

Abdurahmanova, M., Bozorova, S. (2023). Alisher Navoiy – omonimiya nazariyasi asoschisi *Alisher Navoiy va XXI asr. 8-Uluslararo konferansi materiallari.* Toshkent-Boku, B. 327-334.

Hasan Furkan Polat (2020). *Sırpça, Hırvatça, Boşnakça – Türkçe Sesteş Kelimeler.* Edirne.

Homidov, H. (2020). *Türk tili.* Toshkent.

Ibragimova, Z. (2021). “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarining ilmiy ahamiyati. *Oʻzbek mutafakkirlarining til nazariyasiga oid qarashlari. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari.* Toshkent, B. 180.

Jamolxonov, H. (2005). *Hozirgi oʻzbek adabiy tili.* Toshkent. Talqin.

Kiziltunç, Recai (2008). Türk Edebiyatında Tuyug ve Bazi Problemleri. *A.Ü. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi.* Sayı 37, Erzurum. – S.107.

Koraş, Hikmet (2009). *Özbek Şairi Rauf Parfi. 1. Başkı.* Konya.

Kübra, Hadra & Tamtamiş, Erkinay (2022). Çok Anlamlılıktan Eş Adlılığa Doğru Tarihsel Bir Yolculuk. *A Historical Travel from Polysemy to Homonym folk/ed. Derg.;* 28(1) – S. 109.

Pala, İ. (2008). *Divan Edebiyatı.* İstanbul. Sertifika Matbaası.

Püsküllüoğlu, Ali (2002). *Öz Türkçe Sözlük.* Ankara

Rahmatullayev, Sh. (2006). *Hozirgi adabiy oʻzbek tili.* Toshkent. Universitet.

Rahmonov, V. (2014). *Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lugʻatayn.* Toshkent. Tafakkur.

Sakar, Ekrem (2021). Türkçede Eş Biçimlilik Meselesi. *Dil ve Edebiyat Araştırmaları (DEA), Bahar,* S. 23.

Tamtamiş, Erkinay & Kübra, Hadra (2021). (Türkçede Eş Adlılık) Homonym in Turkish. *Journal of Academic Language and Literature,* 5 (1). – 619-653.

Yusuf, Berdak (2009). *Turkcha-Oʻzbekcha “Aldoqchi” soʻzlar lugʻati.* Toshkent.

References

Arakin, V.D. (1978). On homonyms in the Turkish language. *Soviet Turkology,* (2), 48–61. [In Russian]

Arnold, I.V. (1954). *Lexicology of modern English.* [In Russian]

Abdurahmanova, M., & Bozorova, S. (2023). Alisher Navoi as the founder of homonymy theory. In *Alisher Navoi and the 21st century (Proceedings of the 8th International Conference,* pp. 327–334). Tashkent–Baku. [In Uzbek]

Hasan Furkan Polat. (2020). *Serbian-Croatian-Bosnian-Turkish homonyms.* Edirne. [In Turkish]

Homidov, H. (2020). *The Turkic language.* Tashkent. [In Uzbek]

Ibragimova, Z. (2021). The scholarly significance of “Muhokamat ul-lugʻatayn”. In *Views of Uzbek thinkers on linguistic theory (Proceedings of the international scientific-theoretical conference,* p. 180). Tashkent. [In Uzbek]

Jamolxonov, H. (2005). *Modern Uzbek literary language.* Tashkent. Talqin. [In Uzbek]

Kiziltunç, R. (2008). Tuyug in Turkish literature and some related problems. *Journal of the Atatürk University Institute of Turkic Studies,* (37), 107. [In Turkish]

Koraş, H. (2009). *The Uzbek poet Rauf Parfi (1st ed.).* Konya. [In Turkish]

Kopotev, M.V., & Mustajoki, A. (2008). Modern corpus-based Russian studies. In *Slavica Helsingiensia: Tools of Russian linguistics – corpus approaches* (pp. 10–13). Helsinki. [In Russian]

Kübra, H., & Tamtamiş, E. (2022). A historical journey from polysemy to homonymy. *Folk/ Edebiyat,* 28(1), 109. [In Turkish]

Luria, A.R. (2009). *Basic problems of neurolinguistics.* Moscow. [In Russian]

Mashrabbekova, A. (2009). Lexical parallels in Turkic languages and their origin. *Philology:*

Scientific Research, (2), 51–61. [In Russian]

Navoi, A. (1983). *Complete works (Vol. 1: Badoyi' ul-bidoya)*. Tashkent. Fan. [In Uzbek]

Norman, B. Yu. (1974). A psycholinguistic experiment with syntactically homonymous sentences. In *Issues of lexicon and syntax* (pp. 145–150). [In Russian]

Parfi, R. (2013). *The spirit of Turkestan: Selected works*. Tashkent. [In Uzbek]

Pala, İ. (2008). *Divan literature*. Istanbul. Sertifika Press. [In Turkish]

Püsküllüoğlu, A. (2002). *Dictionary of pure Turkish*. Ankara. [In Turkish]

Rahmatullayev, Sh. (2006). *Modern standard Uzbek language*. Tashkent. Universitet. [In Uzbek]

Rahmonov, V. (2014). *Alisher Navoi: Muhokamat ul-lug'atayn*. Tashkent. Tafakkur. [In Uzbek]

Reformatsky, A.A. (1967). *Introduction to linguistics*. Moscow. [In Russian]

Ryabtseva, E.K. (1973). Students' comprehension of grammatical homonymy when reading scientific and technical texts (Based on experimental data). In *Issues of foreign language teaching methodology in schools and universities* (pp. 75–87). [In Russian]

Sakar, E. (2021). The issue of homomorphism in Turkish. *Language and Literature Studies (DEA), Spring*, (23). [In Turkish]

Sevortyan, E.V. (1956). *Verb-forming affixes in the Azerbaijani language*. Moscow. [In Russian]

Tamtamış, E., & Kübra, H. (2021). Homonymy in Turkish. *Journal of Academic Language and Literature*, 5(1), 619–653. [In Turkish]

Yusuf, B. (2009). *Turkish–Uzbek dictionary of “false friends”*. Tashkent. [In Uzbek]

М. Абдурахманова

Ұлықбек мырза атындағы Өзбекстан ұлттық университеті,

Ташкент қ., Өзбекстан.

(E-mail: mabdurakhmanova20@gmail.com)

Өзбек және түрік тілдеріндегі лексикалық омонимдердің көркемдік-танымдық сипаттамалары

Аңдатпа. Лингвокогнитивтік тәсіл сөйлеу механизмдерін, әлем бейнесі мен болмыс туралы ақпараттың тілдік санада бейнелену үдерістерін, сөз мағынасын меңгеру мен ұғымды тілдік жадта сақтау, заттар мен құбылыстар белгілерін қабылдау, лексемалардың семантикалық дамуын, сондай-ақ лексикалық мағынаны түсінудегі форма мен мазмұнның арақатынасын талдауда практикалық маңызға ие. Өзбек және түрік тілдеріндегі лексикалық омонимдер семантикалық, құрылымдық-грамматикалық формаға ғана емес, сонымен қатар когнитивтік құрылыммен байланысты мазмұнға да ие болады. Осы тұрғыдан алғанда, өзбек және түрік тілдеріндегі лексикалық омонимдерді лингвокогнитивтік бағытта талдау бұл тілдердің ойлауды қалыптастыру және дамыту, қабылдау, елестету, менталдық лексиконмен байланысты ерекшеліктерін айқындауда маңызды.

Мақалада лексикалық омонимдер ойлауды дамыту факторы ретінде сипатталып, туйық, аския жанрлары, сондай-ақ ийһом мен тәжнис көркемдік тәсілдері когнитивтік-семантикалық тұрғыдан талданады.

Түйін сөздер: омонимия, лексикалық омонимдер, тіларалық омонимдер, түйдек ұйқас (туюқ), тәжнис

M. Abdurahmanova

*National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Tashkent, Uzbekistan.*

(E-mail: mabduraxmanova20@gmail.com)

Artistic and Cognitive Properties of Lexical Homonyms in the Uzbek and Turkish Languages

Abstract. The linguacognitive approach has practical significance in the analysis of speech mechanisms, the processes of reflecting information about the picture of the world and being in linguistic consciousness, the assimilation of word meanings and the storage of concepts in linguistic memory, the perception of the characteristics of objects and events, the semantic development of lexemes, the relationship between form and content in understanding lexical meaning. Lexical homonyms in the Uzbek and Turkish languages, in addition to the semantic, structural and grammatical form, also have content associated with the cognitive structure. In this regard, the linguacognitive analysis of lexical homonyms in the Uzbek and Turkish languages is important for clarifying the features of these languages associated with the formation and development of thinking, perception, imagination of the mental lexicon. The article examines lexical homonymy as a factor in the development of thinking and provides a cognitive-semantic analysis of the genres of tuyuk, askiya, iyhom, tajnis.

Keywords: homonymy, lexical homonyms, interlingual homonyms, tuyuq (a genre of Turkic poetry), tajnis (paronomasia, wordplay based on homonymy).

Muallif haqida ma'lumot:

Abdurahmanova Muqaddas – falsafa doktori (PhD), dotsent, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston. ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-6987-3501>

Автор туралы мәлімет:

Абдурахманова Муқаддас – PhD, доцент, Ўлықбек мырза атындағы Ўзбекстан ўлттық университеті, Ташкент қ., Ўзбекстан. ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-6987-3501>

Information about author:

Abdurahmanova Muqaddas – PhD, Associate Professor, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Tashkent, Uzbekistan. ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-6987-3501>



Бўл жұмыс Creative Commons Attribution-Коммерциялық Емес 4.0 Халықаралық лицензиясы бойынша лицензияланған.
This work is licensed under Creative Commons Attribution-Noncommercial 4.0 International License